

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA QULUPNAY YETISHTIRISH

Atayeva Zamira Alimovna

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

Atoeva Madinabonu Ilhomovna

Buxoro davlat universiteti, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyati sharoitida qulupnayning “Viktoriya” navini yetishtirishni o'rganish to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qulupnay, meva, urug', qulupnay navlari, yetishtirish usullari, ko'chat, zamburug' kasalliklari, fitolampa

Аннотация: В данной статье кратко рассказано о выращивании сорта клубники “Виктория” в условиях Бухарской области.

Ключевые слова: клубника, плоды, семена, сорта клубники, способы выращивания, рассада, грибковые заболевания, фитолампа.

Abstract: This article briefly describes the cultivation of the Victoria variety from strawberries in the conditions of the Bukhara region.

Key words: strawberries, fruits, seeds, strawberry varieties, growing methods, seedlings, fungal diseases, phytolamp.

Kirish. Qulupnay barcha sevib iste'mol qiladigan mevalar qatoriga kiradi. Qulupnay boshqacha nomi yertut – ra'noguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumiga kiruvchi, rezavor meva hisoblanadi. Qulupnayning tarkibida muhim oziq moddalar va foydali fitokimyoviy moddalar mavjud bo'lib, ular inson salomatligi uchun biologik faollikka egadi. Shuningdek, insonlar tomonidan uning o'ziga xos hidi, yorqin qizil rangi, suvli tuzilishi va shirinligi keng qadrlanib, mevasining sifati bir nechta xususiyatlar genetik omillar, ekinning joylashuvi, yetishtirish usullari va boshqa omillar bilan belgilanadi. [1,2] Qulupnay AQSh, Italiya, Ispaniya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda past namlikda yetishtirish uchun mos meva sifatida tanilgan. Bugungi kunda, qulupnay 76 mamlakatda tijorat maqsadida yetishtirilib, eng ko'p Xitoy, AQSH, Meksika, Turkiya va Ispaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Oxirgi 20 yilda 463 ta yangi qulupnay navlari tijorat asosida joriy etilgan bo'lib, O'zbekistonda Muto, Tashkentskaya, Zenga-Zengana, O'zbekiston go'zali, Kobra, Medvey, Seolhyang, Alba va Viktoria navlari keng tarqalgan. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan qulupnay mahsuloti Qozog'iston, Qirg'iziston, BAA, Rossiya kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. O'zbekistonda qulupnay

asosan Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Samarqand va Jizzax, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida yaxshi hosil beradi. Shunga qaramasdan Buxoro sharoitida ham qulupnay yetishtirish ko'pchilikka qiziqish uyg'otmoqda. Albatta, Buxoro viloyatida qulupnay yetishtirish biroz qiyin, chunki bu hudud issiq va qurg'oqchil iqlimga ega. Shuning uchun ham nav tanlashda e'tibor berishimiz kerak, aynan Buxoro viloyatining ob-havosidan kelib chiqqan holda issiqqa chidamli qulupnay navlarini ekishimiz kerak [4,5,6].

Tadqiqot materiallari va uslublari. Buxoro tuproq-iqlim sharoitida qulupnayning Viktoriya navini urug'lari va ko'chatlari orqali ekib o'rganilmoqda. "Viktoriya navi" klassik qulupnay navlaridan biridir. U o'zining yirik mevalari, ajoyib ta'mi va yuqori hosildorligi bilan mashhur. Ushbu nav asosan tijorat maqsadida va tomorqalarda yetishtiriladi. Mevalari o'rtacha yoki yirik, yumaloq-konussimon, qizil rangli va yorqin yuzli. Ta'mi juda shirin, nordonligi kam, xushbo'y. Iqlimga chidamliligiga baho bersak sovuqqa nisbatan chidamli, ammo issiq va qurg'oqchilikka sezgir. Kasalliklarga chidamli, asosan zamburug' kasalliklaridan un shudring va kulrang chirish kasalligiga nisbatan chidamli. Buxoro viloyatida qulupnayning Viktoriya navini yetishtirishni tanlashdan maqsad - ushbu nav barcha viloyatlarda yetishtirishga mo'ljallangan, undan tashqari kasalliklarga va iqlimga chidamliligidir.



1-rasm . Viktoriya qulupnay navi

Tahlil va natijalar. Ushbu qulupnay navini yetishtirishda quyidagi ekish va tuproqqa bir qator talablari bor. Jumladan, yaxshi drenajlangan, unumdor tuproqda yaxshi o'sadi, tuproqning Ph muhiti 5.5-6.5 bo'lishi kerak. Ko'chatlar orasidagi masofa 30 sm bo'lishi kerak.

Sug'orish talablari: O'rtacha namlikni talab qiladi, muntazam sug'orish zarur, tomchilatib sug'orish tavsiya etiladi

Buxoro viloyatida bu qulupnayni ekishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak: Ekish vaqti ko'chatlar tayyor bo'lgandan so'ng bahorgi ekish fevral oxiri-mart oyi boshlarida ekish tavsiya etiladi. Kuzgi qishki mavsumda sentyabr-oktabr oylariga to'g'ri keladi.

Ekish sxemasi: qator oralig'i – 30-40sm

Ko'chat oralig'i- 25-30sm

Ekish chuqurligi-8-10sm

Shuningdek, qulupnay ko'chatlarni parvarishlashda qo'shimcha fitolampalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Fitolampalar -maxsus yorug'lik lampalari bo'lib, ular o'simlikning fotosintez jarayonini qo'llab quvatish va o'sishini tezlashtirish uchun ishlatiladi.



2-rasm . Viktoriya qulupnay navi ko'chati

Agarda qulupnayni yopiq joyda issiqxona, uy sharoiti, yoki yopiq fermalarda yetishtirmoqchi bo'lsangiz fitolampalar yorug'lik yetishmovchiligini kompensatsiya qilish uchun juda foydali bo'ladi. Fitolampalar o'simlik uchun kerakli spektrdagi yorug'likni chiqaradi: Ko'k spektr nurlar barg va ildiz rivojlanishini ta'minlaydi. Qizil spektr 600-700nm gullash va hosil tugishni tezlashtiradi. Ultrabinafsha va infra qizil nurlar o'simlikning immunitetini mustahkamlashga yordam beradi Fitolampalarning

qulupnay uchun foydasi: Fotosintezni kuchaytiradi-o'simlik tezroq o'sadi. Hosildorlikni oshiradi-ko'proq va sifatli hosil olish imkonini beradi,o'simlik immunitetini oshiradi, kasallik va stressga chidamlilik oshadi. Fitolampalarni joylashtirish qoidalari. Lampaning balandligi: 25-40sm, yorug'lik taqsimoti bo'yicha qulupnay barglariga to'g'ridan -to'g'ri tushishi lozim. Yorug'lik muddati: Qish mavsumida.-kuniga 12-16soat, bahor va yozda tabiiy yorug'lik yetarli bo'lsa, faqat qo'shimcha miqdorda yoritish kerak, gullash va meva tugish davrida kamida 14 soat yoritish tavsiya etiladi.

Xulosa.

Tadqiqot ishlarining qishloq xo'jaligida keng miqyosda foydalanish mumkinligini inobatga olgan holda xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Buxoro tuproq-iqlim sharoitda qulupnay yetishtirish zaruratga aylanmoqda. Buning sababi shuki qulupnayning yaxshi ta'mi va xushbo'yligi, xushbo'y hidi bilan insonlar tomonidan oziqlanishidagi ahamiyati, qolaversa, qulupnay parhez meva bo'lganligi sabab barcha mamlakatlarning qulupnay ishlab chiqarishi va bozorida talab va takliflarning ortishi bilan bog'liqdir. Demak bularning barchasi tez fursatlarda jadallik bilan oshib borayotgan dunyo aholisining oziq-ovqat tanqisligini xavfsizligini oldini olishga qaratilgan bo'lib, qo'shimcha ravishda qulupnay o'simligining yangi sermahsul nav va duragaylarini yaratish kabi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Ribakov,S.A.Ostrouxova - «O'bekiston mevachiligi» T.: «O'qituvchi», 1981.
2. V.A.Kolesnikov - «Plodovodstvo» M.: «Kolos» 1985.
3. Yunusov, R., and F. A. Ganiyeva. "Agrochemical properties of the soils of intensive apple orchards in Bukhara region." *BIO Web of Conferences*. Vol. 116. EDP Sciences, 2024.
4. Rustam Yunusov, Feruza Amrilloevna Ganieva, Manzura Isroilovna Artikova, and Zamira Alimovna Atayeva. "THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, vol. 3, no. 02, Feb. 2022, pp. 773-81, doi:10.17605/OSF.IO/2BU6D.
5. Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F.,Atayeva, Z.Influence of cultivar combinations and seedling thickness on the formation of phytometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9.